



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 219 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников	18
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari.....	26
To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li	
Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review.....	32
Ismoilova Maftuna Mamat qizi	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....	38
Primova Shaxlo Jumayevna	
Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash.....	43
Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi	
Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish	52
Qodirova Zilola Maxmud qizi	
Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorij tajribasi.....	57
Erkayev Nodir Xudayberdiyevich	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari.....	71
Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro'zigul Akmaljon qizi	
Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution.....	76
Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich	
Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va O'zbekiston mehnat bozoridagi o'zgarishlar.....	89
Tilabova Kumush Farhod qizi	
Mamlakatda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	95
Yuldashboyev Azizulloh Bunyodbek o'g'li, Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich	
"Ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish"	101
Bauyetdinov M.J., Medetbayeva D.T.	
Enhancing utilization and minimization of renewable energy systems in uzbekistan	105
Toyirova Hamida Umedovna	
Tijorat banklari daromadini oshirishda aholining savodxonligi va xulq atvorining roli	114
Shakhlo Davirova	
2020–2024-yillarda o'zbekistondagi iqtisodiy o'sish dinamikasi	120
Akbarov Nodir, Ibodullayev Navro'zbek	
O'zbekistonda xalqaro moliyaviy institutlarning yashil moliyalashtirish jarayonidagi roli va strategik yo'nalishlari	125
Gulmira Axmadjonova Xabibulla qizi	
Sug'urta tizimiga raqamli texnologiyalarning ta'siri	133
Uzaqova Kamola Bexzodovna, Yahyoyev Bahriddinxon Bahroil o'g'li	
Improving payment services practices in commercial banks: strategies for efficiency and security.....	138
Mamayusuf Abdusamatov	
Jahon moliya tizimi: asosiy tendensiyalar va rivojlanishning innovasion yo'nalishlari	143
Ataniyazov Jasurbek Xamidovich	
Повышение конкурентоспособности экологического туризма Узбекистана путём развития всесезонных горных туристических центров.....	150
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar tashqi iqtisodiy faoliyatida valyuta operatsiyalarini takomillashtirish	157
Safarov Alisher Ibrohim o'g'li	



Oliy ta'lim tizimini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida baholashning kompleks metodologiyasi.....	163
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi	
Ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari	167
Mirdjalilova Dildora Shuxratovna	
Xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik biznesning ahamiyati va uning innovatsion rivojlantirishdagi muhim xususiyatlari	173
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna	
Результаты долгосрочного прогнозирования и стратегического анализа эффективной организации современного управления жилищным фондом.....	178
Бердиева Дилфуза Ахатовна	
Improving long-term assets accounting and auditing	184
Gulboy Yusupov	
Davlat budjeti va xususiy sektor ishtirokida oliy ta'limni moliyalashtirishning optimal modeli.....	189
Bozorov Alisher Ro'zimurodovich	
Xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq islohotlari va raqamli texnologiyalar: O'zbekiston tajribasi va xalqaro yondashuvlar.....	193
Choriev Makhmayokub, Karimov Mamurbek, Xamrayev Olimjon, Urazov Mansur	
Bank aksiyalarining bozordagi narx dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar	200
Nomozov Samandar Shuxrat o'g'li	
Sanoatda rivojlanish kafolati: moliyaviy boshqaruvni raqamli transformatsiya orqali avtomatlashtirish.....	206
To'qliyev Abdirauf Bahodir o'g'li	
Inson kapitalini rivojlantirishning jamiyat farovonligi, aholi daromadlariga ta'siri.....	214
Bozorova Saxobat Abdujapparovna	



INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING JAMIYAT FAROVONLIGI, AHOLI DAROMADLARIGA TA'SIRI

Bozorova Saxobat Abdujapparovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
PhD.dots.

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishning jamiyat farovonligi va aholi daromadlariga ta'siri o'rganilgan. Inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar, ta'lim hamda sog'liqni saqlash sohalariga qaratilayotgan e'tibor va davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyat farovonligi va aholining daromadlarini oshirishning ishonchli yo'li sifatida tahlil etilgan. Tadqiqotda, shuningdek, 2024-yilda har bir hudud bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan umumiy daromadlarning o'zgarishi tahlil qilingan. Maqola yakunida hukumatning inson kapitaliga sarmoya kiritish, ta'lim va sog'liqni saqlashni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish, ishlab chiqarishga investitsiyalar jalb etish, innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali jamiyat farovonligi va aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan siyosatiga oid taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Inson kapitali, jamiyat farovonligi, aholi daromadlari, Global farovonlik indeksi (Legatum Prosperity Index), ta'lim, sog'liqni saqlash, turmush darajasi.

Abstract: This article explores the impact of human capital development on societal well-being and household income in Uzbekistan. It analyzes investments in human capital, attention to education and healthcare sectors, and ongoing government reforms as reliable means of enhancing public welfare and increasing income levels. The study also examines changes in per capita income across different regions of Uzbekistan in 2024. In conclusion, the article offers policy suggestions and recommendations aimed at improving societal well-being and income levels through strategic investments in human capital, the expansion of education and healthcare, job creation, and the integration of innovation and modern technologies into the economy.

Key words: Human capital, societal well-being, household income, Global Prosperity Index (Legatum Prosperity Index), education, healthcare, standard of living.

Аннотация: В статье исследуется влияние развития человеческого капитала в Узбекистане на общественное благосостояние и доходы населения. Проанализированы инвестиции в человеческий капитал, внимание, уделяемое образованию и здравоохранению, а также проводимые государством реформы как надежный путь к повышению уровня благосостояния общества и доходов населения. Также в исследовании рассмотрены изменения совокупных доходов на душу населения по регионам в 2024 году. В заключение статьи представлены предложения и рекомендации, направленные на повышение общественного благосостояния и доходов населения через инвестиции в человеческий капитал, развитие образования и здравоохранения, создание рабочих мест, внедрение инноваций и современных технологий.

Ключевые слова: Человеческий капитал, общественное благосостояние, доходы населения, Глобальный индекс процветания (Legatum Prosperity Index), образование, здравоохранение, уровень жизни.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyat farovonligi va ijtimoiy barqarorlik davlat taraqqiyotining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Buyuk Britaniyaning *Legatum Institute Global farovonlik indeksi (Legatum Prosperity Index)*



ma'lumotlariga ko'ra, Norvegiya, Daniya, Shveysariya va Finlyandiya dunyodagi eng farovon davlatlar sifatida e'tirof etilgan. *Global farovonlik indeksi (Legatum Prosperity Index)* 2023-yil natijalariga ko'ra, 167 ta mamlakat orasida O'zbekiston 100-o'rinni egalladi [1]. Ushbu mamlakatlarda inson kapitaliga investitsiya, yuqori darajadagi ta'lim, samarali sog'liqni saqlash tizimi va iqtisodiy barqarorlik ta'minlangan. Farovonlik va ijtimoiy barqarorlikka erishish uchun davlatlar turli islohotlar o'tkazib, aholi turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan dasturlarni amalga oshirmoqda. Bu esa jamiyatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi va umumiy taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi.

Singapur ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga katta e'tibor qaratib, yuqori malakali ishchi kuchini shakllantirgan. Kanada ham inson kapitaliga investitsiya kiritish orqali aholi turmush darajasini oshirishda muvaffaqiyatga erishgan. Shuningdek, O'zbekiston ham 2025-yilda iqtisodiy o'sishni 5,8% darajasida prognoz qilmoqda, bu Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar orasida eng yuqori ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Bunday o'sish inson kapitaliga kiritilgan sarmoyalar va iqtisodiy islohotlar natijasida amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda ham jahonning ko'plab mamlakatlaridagi kabi inson kapitalini rivojlantirish asosida jamiyat farovonligi va aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan qonun va me'yoriy-huquqiy asoslar ishlab chiqilib, islohotlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi "“Kambag'allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-330-sonli¹ qarorida barqaror bandlikni ta'minlash va yuqori daromad topishga erishish, tadbirkorlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatish, “drayver” loyihalarini amalga oshirish, yer maydonlarini kambag'al oilalarga ijaraga berish, tadbirkorlikka jalb qilish kabi qator maqsadlar belgilangan. Shuningdek, 2024-yil yakuniga qadar 500 ming, 2025-yil davomida esa 1 million nafar aholini kambag'allikdan chiqarish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Ushbu dasturda ta'lim olish va kasb-hunarga o'rganish imkoniyatini yaratish, maktabgacha ta'lim bilan qamrovni oshirish, xorijiy tillarga, kasb-hunarga yoki mutaxassislikka o'qitish, oliy ma'lumot olishga ko'maklashish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, kambag'al oilalarning farzandlarini maktabdan tashqari ta'lim va sport to'garaklariga jalb qilish darajasini oshirish, 2025-yil yakuniga qadar 3–7 yoshli bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasini 80 foizga yetkazish maqsad qilib qo'yilgan [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inson kapitali jamiyat farovonligi va aholi daromadlariga ta'sirini o'rganish, iqtisodiy rivojlanish, ta'lim, sog'liq va ijtimoiy imkoniyatlar bilan bog'liq muammolarni tushunishda muhim ahamiyatga ega. Inson kapitali tushunchasini ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar o'z tadqiqotlarida o'rganganlar. Birinchi marta 1961-yilda bu iborani amerikalik Teodor Shuls ishlatgan. Teodor Shuls ta'lim va kasbiy malakaga sarflangan mablag'larni jamiyat farovonligining asosiy manbalaridan biri deb hisoblaydi. Shuls inson kapitaliga sarflangan investitsiyalar natijasida iqtisodiy o'sishga ta'sir etishini ko'rsatgan. Uning tadqiqotlariga ko'ra, ta'lim va sog'liqni saqlashning yaxshilanishi aholi daromadlarining o'sishini ta'minlaydi [3].

G. Bekker 1965-yilda inson kapitaliga qo'yilmalar samaradorligini asoslab, inson xulq-atvoriga iqtisodiy yondashuvni shakllantirgan holda bu g'oyani ishlab chiqqan. Inson kapitali nazariyasi asoslarini yaratgani uchun ular iqtisod bo'yicha Nobel mukofotlari bilan taqdirlanganlar (1979-yilda Teodor Shulsga, 1992-yilda G. Bekkerga). Teodor Shuls inson kapitali nazariyasi rivojlanishining dastlabki bosqichi shakllanishiga, uning ilmiy jamoatchilik tomonidan qabul qilinishi va ommalashishiga ulkan hissa qo'shdi. U birinchilardan bo'lib ishlab chiqarish omili sifatida inson kapitali tushunchasini kiritgan. Uning asosiy tadqiqotlari inson kapitali va ta'limning iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Bekkerning fikricha, inson kapitali (ta'lim, kasbiy malaka, sog'liq) iqtisodiy o'sish va aholi daromadlariga asosiy ta'sir ko'rsatadi. U iqtisodiyotning barqaror rivoji uchun ta'limga sarflangan sarmoyaning ahamiyatini ta'kidlagan [4].

Djeys Xekman inson kapitali va ijtimoiy boshqaruvning mustahkamlanishi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Uning tadqiqotlari ta'lim va ijtimoiy yordamlar bilan bog'liq bo'lib, ularning aholi daromadlariga va ijtimoiy farovonlikka ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Xekmanning fikricha, insoniy kapitalga sarflangan sarmoya axborot, ta'lim va ko'nikmalarni rivojlantirish orqali aholining ijtimoiy farovonligini oshirish mumkin [5].

Amariya Sen inson kapitali va farovonlikning ijtimoiy jihatlari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Uning iqtisodiy taraqqiyotga oid modellari insonning imkoniyatlariga, ularni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan resurslarga va ijtimoiy tenglikka asoslangan. Amariya Senning qarashlariga ko'ra, inson kapitali fuqarolarning manfaatlari va ularning ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini hal qilishda muhim rol o'ynaydi [6].

Robert Losh inson kapitali va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi aloqalarni o'rgangan. Uning tadqiqotlari, iqtisodiy o'sishda ta'lim va sog'liqni saqlashning ahamiyatiga aniq ko'rsatmalar beradi. Loshning fikricha, inson



kapitaliga qilinadigan sarmoya ijtimoiy farovonlikning uzoq muddatli o'sishini ta'minlaydi va aholi daromadlarining o'sishida katta rol o'ynaydi [7].

Ushbu olimlar inson kapitali va uning jamiyat farovonligiga va aholi daromadlariga ta'sirini turli jihatlardan ko'rib chiqqan va ularning tadqiqotlari zamonaviy iqtisodiy tizimdagi muhim tamoyillarni tashkil etgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida inson kapitalini rivojlantirishning jamiyat farovonligi va aholi daromadlariga ta'siri, O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, jamiyat farovonligini oshirish yo'nalishlari, tadqiqot yillarida aholi daromadlarini ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishning o'zaro aloqadorligini aniqlash bo'yicha iqtisodiy tizimlar va nisbatlarni o'rganishda tizimli yondashuv, kompleks baholash, qiyosiy va solishtirma tahlil, guruhlash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jamiyat farovonligi – mamlakatdagi aholining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy holatini ko'rsatuvchi umumiy ko'rsatkichdir. Jamiyat farovonligining belgilovchi omillari sifatida quyidagi ko'rsatkichlar aks etadi (1-jadval):

Jamiyat farovonligi, shuningdek, fuqarolarning ahvoli, ularning salomatligi, ta'lim olish imkoniyatlari, ish bilan ta'minlanish holati, aholi orzu va kutilmalari bilan ham bog'liq. Agar mazkur sohalar muvaffaqiyatga erishilsa, jamiyat farovonlikka erishgan hisoblanadi.

1-jadval. Jamiyat farovonligini belgilovchi ko'rsatkichlar¹.

№	Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichlar tarkibi
1	Iqtisodiy rivojlanish	Yashash darajasi, ish bilan ta'minlash, ish haqi, yoshlar va ayollar uchun bandlik imkoniyatlari. Tenglik va iqtisodiy imkoniyatlar, aholi daromadlarining o'rtacha darajasi. Tadbirkorlik faoliyati va investisiyalarning rivojlanishi.
2	Ta'lim	Oliy ta'lim va ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy ta'lim tizimi. Maktab ta'limi va o'quv dasturlarining zamonaviylashtirilishi. Yoshlarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish va ularni ish bilan ta'minlash.
3	Sog'liqni saqlash	Aholining sog'lig'i, tibbiy xizmatlar sifati va ularning imkoniyatlari. Tibbiy xizmatlarning barqarorligi va har bir fuqaroga yordam ko'rsatish uchun infratuzilmaning rivoji.
4	Ijtimoiy adolat va tenglik:	Sog'lom turmush tarzi va profilaktik tibbiyotning ahamiyati. Ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy himoyaning dostupligi, kambag'allikni kamaytirish. Nodavlat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining ish faoliyati.
5	Madaniyat va san'at	Mahalliy hokimiyatlar va davlat organlarining aholi bilan munosabatlari. Madaniy va ijtimoiy tadbirlar, xalqaro aloqalar va madaniy merosni saqlash. San'atning rivojlanishi va faoliyati.
6	Boshqaruv va siyosiy huquqlar	Milliy va jahon madaniyati bilan aloqa va integrasiya. Demokratik boshqaruv, erkin va adolatli saylovlar, inson huquqlarining himoyasi. Fuqarolik jamiyatining faolligi, hukumat va aholi o'rtasida ishonch.
7	Ekologik barqarorlik:	Huquqiy tizimning samarali ishlashi va qonunlarning adolatli bajarilishi. Ekologik holat, tabiatni muhofaza qilish va yangi ekologik tadbirlar. Havo, suv va yer resurslarini oqilona boshqarish.
		O'zgarishlarga qarshi kurashish va global muammolarga javob berish.

Jamiyat farovonligini belgilovchi ushbu ko'rsatkichlarning muhimligi va dolzarbligi "Kambag'al oilalar uchun yettita imkoniyat va mas'uliyat" tamoyili doirasida belgilangan yo'nalishlarda ham o'z aksini topgan [8]:

Barqaror bandlik va yuqori daromad topishga erishish – tadbirkorlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatish hamda har bir mahallaga yetakchi tadbirkorlarni jalb qilish; tomorqadan samarali foydalanish; har bir tuman va shaharda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga turtki beruvchi kamida besh tadan "drayver" loyihalarni amalga oshirish; qo'shimcha 50 ming gektar ekin maydonlarini kambag'al oilalarga ijaraga berish; ularga kichik ishlab chiqarish uskunalari, ko'chma do'kon, motoroller, skuter kabi vositalarni bo'lib to'lash sharti bilan berish.

Ta'lim olish va kasb-hunar o'rganish – 2024–2025 yillarda kambag'al oilalar farzandlarining maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasini 80 foizga yetkazish; oilaning kamida bitta farzandini xorijiy tillarga, kasb-hunarga

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-330-sonli qarori: <https://lex.uz/docs/-7109778>



yoki mutaxassislikka o'qitish; bitta farzandi, xususan, qiz farzandining oliy ma'lumotga ega bo'lishi uchun sharoit yaratish; bolalarni kompyuter savodxonligiga o'rgatish; axborot texnologiyalari va dasturlash bo'yicha o'quv kurslarida o'qishi uchun sharoit yaratish; shu jumladan, maktablarda to'garaklar tashkil etish.

Kafolatlangan davlat tibbiy xizmatidan foydalanish – kambag'al oilalarning har bir a'zosi yiliga bir marta to'liq tibbiy ko'rikdan o'tishi; ularning o'z sog'lig'i uchun mas'uliyatini oshirishi (kundalik turmush tarzi va ovqatlanishda zararli odatlardan voz kechishi); har bir farzandning sport to'garaklariga qatnashishi uchun imkoniyatlar yaratish; oilaning tibbiy xizmatlarga o'z hisobidan sarflaydigan xarajatlarini ikki barobar qisqartirish.

Ijtimoiy xizmatlardan foydalanish – ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish ko'lamini kengaytirish orqali oilalarning mehnat qilish imkoniyatini cheklovchi omillarni bartaraf etish; xususan, o'zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarga kunduzgi qatnov asosida qarab turish; bolalarni tarbiyalash va kunduzgi parvarishlash xizmatlarini yo'lga qo'yish.

Yashash sharoitlarini yaxshilash – ipoteka tizimidan foydalanish imkoniyatini kengaytirish; mahallalarda ekologik toza materiallar va texnologiyalardan foydalangan holda zamonaviy "yashil" turarjoylarni qurish yoki rekonstruksiya qilish; toza ichimlik suvni yetkazish; xonadonlarda energiya tejovchi innovatsion yoritish, isitish va issiq suv ta'minoti hamda chiqindilarni qayta ishlash tizimlarini joriy etish.

Davlat tomonidan mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish – tomorqalarni sug'orish suvi; mahallani elektr energiyasi va internet bilan uzluksiz ta'minlash; uning tuman markazi bilan transport jihatidan bog'langanligini yaxshilash; ichki yo'llarni ta'mirlash; hududlarni jadal kompleks rivojlantirish dasturlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish.

Davlat organlari xodimlari bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish – barcha bo'g'indagi davlat hokimiyati organlari kambag'al oilalar bilan muntazam to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatishi; birdamlikda harakat qilishi hamda rahbarlarni kambag'al oilalarga birlashtirish; ularning muammolarini birgalikda yechishga ko'maklashish.

Turli hududlarda aholi jon boshiga umumiy daromadlarning o'zgarishi tahlil qilindi. Ushbu o'zgarishlar bir qator omillar bilan bog'liq bo'lib, ular ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarning ta'sirida yuzaga keladi. Jumladan, inson kapitali, ish o'rinlari, ta'lim sifati, sog'liqni saqlash tizimi, bandlik darajasi va ijtimoiy xizmatlarning mavjudligi aholi daromadlariga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida belgilandi.(2-jadval)

2-jadval. Aholi jon boshiga umumiy daromadlari o'sish sur'ati.

Klassifikator	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2024-yilda 2020-yilga nisbatan %
O'zbekiston Respublikasi	110,9	122,4	119,1	113	116,1	104,64%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	115,1	119,5	117,5	109,1	112,1	-102,60%
Andijon viloyati	108,2	119,7	122,3	117	114	105,34%
Buxoro viloyati	111,9	123,3	118	108,7	113,4	101,34%
Jizzax viloyati	112	120,3	113,9	111,7	111,8	-100,18%
Qashqadaryo viloyati	111,4	118,8	119,5	108,7	112,9	101,34%
Navoiy viloyati	117	123,8	109,5	114,7	117,1	100,09%
Namangan viloyati	111,7	122,4	121	106,1	110,2	-101,34%
Samarqand viloyati	111,3	122,2	118,8	106,2	115,1	103,43%
Surxondaryo viloyati	109,8	121,7	122,4	107,8	110,3	100,46%
Sirdaryo viloyati	109	116,2	114	112,8	112,3	103,06%
Toshkent viloyati	115,4	123,6	112,8	112,8	116,5	100,95%
Farg'ona viloyati	108,6	127,3	122,2	120,7	110,4	101,66%
Xorazm viloyati	109,4	128,5	123,7	101,8	114,1	104,30%
Toshkent shahri	107	119,6	121,1	123,7	128,4	120,00%

Tahlil natijalariga ko'ra, 2-jadvaldagi ma'lumotlar har bir hududda aholi jon boshiga umumiy daromadlarning o'zgarishiga turli omillar ta'sir ko'rsatishini ko'rsatmoqda. Ushbu omillar orasida inson kapitali, ish o'rinlari, ta'lim sifati, sog'liqni saqlash tizimi, bandlik darajasi va ijtimoiy xizmatlar alohida ahamiyatga ega.

Toshkent shahri mamlakatdagi eng yuqori aholi jon boshiga umumiy daromadlarga ega hudud sifatida ajralib turadi. 2024-yilda ularning daromadlari 2020-yilga nisbatan 20% ga oshgan. Bu o'sishning bir qancha sabablari bor. Jumladan, Toshkentda ko'plab xalqaro va mahalliy kompaniyalar faoliyat yuritib, yangi ish o'rinlari yaratilgan va daromadlar oshgan. Shuningdek, bu hududda yoshlar yuqori darajada ta'lim olish va professional



kasb-hunar egallash imkoniyatlariga ega. Bu esa ularning ish hayoti va daromadlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy infratuzilma, ilg'or ta'lim muassasalari va innovatsion texnologiyalarga e'tibor qaratilishi tufayli aholi turmush darajasi yaxshilanib, yuqori malakali kadrlar soni ortgan. Ish o'rinlari va bandlikni oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarda ijobiy natijalar erishilgan, bu esa aholi jon boshiga daromadlarning yuqori bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi esa eng past aholi jon boshiga umumiy daromadlarga ega bo'lib, 2024-yilda 2020-yilga nisbatan 102,6% kamaygan. Ushbu pasayishning bir qancha sabablari mavjud. Hududdagi iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari cheklangan, ishsizlik darajasi yuqori va infratuzilmalar yetarlicha rivojlanmagan. Ish o'rinlari yaratishda yuzaga kelgan qiyinchiliklar aholi daromadlarini oshirishni qiyinlashtirmoqda. Ta'lim sifati pastligi va malakali ishchilarning yetishmasligi ham daromadlarning pasayishiga olib kelgan. Toshkent shahri bilan solishtirganda, Qoraqalpog'istonda ta'lim va bandlik darajasi past.

Boshqa hududlar, masalan, Andijon viloyati (105,34%) va Samarqand viloyati (103,43%), daromadlarning sezilarli o'sishini ko'rsatmoqda. Umumiy tahlillarga ko'ra, O'zbekistonda aholi jon boshiga umumiy daromadlar yiliga taxminan 5% ga o'smoqda. Agar bu tendensiya saqlansa, 2030-yilgacha aholi jon boshiga daromadlarning barqaror o'sishi davom etishi mumkin. Kelgusi yillarda iqtisodiy o'sishni turli sektorlardagi islohotlar bilan qo'llab-quvvatlash zarur bo'ladi. Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Farg'ona va Xorazm viloyatlari, iqtisodiy va infratuzilmaviy rivojlanishdagi imkoniyatlari tufayli, aholi daromadlarining yuqori o'sishi kutilayotgan hududlar sifatida e'tirof etilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jamiyat farovonligi va aholi daromadlari iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari sifatida inson kapitali bilan chambarchas bog'liq. Inson kapitali shaxsning bilim, ko'nikma, tajriba va sog'lig'idan iborat bo'lib, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu resurs rivojlangan jamiyatlarda aholi daromadlarining yuqori bo'lishini va umumiy farovonlikning ortishini ta'minlaydi.

Aholi ta'limi va kasbiy malaka oshirish darajasi inson kapitalini shakllantiruvchi birinchi muhim omildir. Sifatli va zamonaviy ta'lim insonlarning ish joylaridagi samaradorligini oshiradi, yangi ish o'rinlarini yaratishga imkon beradi va natijada daromadlarning o'sishiga olib keladi. Masalan, kasbiy tayyorgarlik kurslari yordamchi sohalarda faoliyat ko'rsatadigan kadrlar tayyorlashga, ishchilarni zamonaviy texnologiyalarni qo'llashga o'rgatishga va shu orqali yuqori daromad olishlariga yordam beradi.

Bundan tashqari, inson kapitalining muhim tarkibiy qismi – sog'liq ham aholi daromadlarining barqaror bo'lishini ta'minlaydi. Sog'lom va yaxshi mehnat sharoitlariga ega ishchi kuchi yuqori samaradorlikka erishadi. Aholi sog'lig'i yaxshi bo'lsa, ular uzoqroq ishlashadi, iqtisodiyotga ko'proq hissa qo'shishadi va daromadlar oshishiga sabab bo'ladi.

Inson kapitalining rivojlanishi jamiyatda ishlab chiqarishga sarmoya kiritish, innovatsiyalar va texnologiyalarni joriy etishga yo'l ochadi. Bu esa ishlab chiqarish hajmining o'sishi va iqtisodiy rivojlanish sur'atlarining tezlashishini ta'minlaydi. Inson kapitali rivojlangan jamiyatda aholining ijtimoiy va kasbiy ko'nikmalari muammolarga samarali yechim topishga yordam beradi. Shunday jamiyatda kambag'allikni kamaytirish, daromadlarni oshirish va aholini yuqori turmush darajasiga ko'tarish imkoniyati kengayadi.

Hukumatning inson kapitaliga qaratilgan siyosatlari va sarmoyalari, jumladan, ta'lim, sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha chora-tadbirlari aholi daromadlarining oshishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu siyosatlar inson kapitalini rivojlantirish va yangi malakalar egallash imkoniyatlarini taqdim etish orqali iqtisodiy barqarorlik va jamiyat farovonligiga erishishga ko'maklashadi. Shu bois, inson kapitaliga yo'naltirilgan harakatlar aholi daromadlari va jamiyat farovonligini oshirish uchun muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Legatum Institute. Global farovonlik indeksi 2023 (Legatum Prosperity Index 2023). Rankings: Legatum Prosperity Index 2023. www.prosperity.com.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024). "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi. PQ-330-son Qarori, 23.09.2024.
3. Schultz, T. W. (1961). Investments in Human Capital. American Economic Review.
4. Becker, G. S. (1964). Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. University of Chicago Press.
5. Heckman, J. J., & LaFontaine, P. (2010). The Economics of Human Development and Social Mobility. National Bureau of Economic Research.
6. Sen, A. (1999). Development as Freedom. Alfred A. Knopf.
7. Loos, R. F. (2000). Human Capital and Economic Development. Economic Review.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024). Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida. PF-143-son Farmon, 23.09.2024. <https://lex.uz/docs/710985>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
